



№5

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Meyliyev Obid Raxmatullaevich	Soliqlarning budget daromadlaridagi ahamiyatini oshirish	7
2.	Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи	Тижорат банкларининг капитал базасини мустаҳкамлашнинг методологик ва амалий асосларини такомиллаштириш	14
3.	Жабборов Насриддин Мирзаодилович, Юнусова Шохсанам Муротовна, Бебутова Зулайхо Хамидовна, Сафарова Севара Қахрамон қизи	Тошкент вилояти туристик ҳудудлари имижли модели учун барқарорлик таҳлили	19
4.	Мухамедова Севара Абдуллаевна	Тижорат банкларида кичик бизнес лойиҳаларини кредитлашда банк таваккалчиликларини баҳолаш ва бошқариш тизими	27
5.	Abduqayumov Elyorbek Ulug'bek o'g'li, Yo'ldosheva Oygul Zokir qizi	Janubiy Koreya kinoindustriyasining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ta'siri	33
6.	Umarova Shahnoza	Moliyaviy faoliyat bo'yicha baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	40
7.	Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	Avtomobilsozlik korxonalarining xarajat samaradorligini ekonometrik modellash	46
8.	Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	O'zbekistonda auditorlik faoliyatini tashkil etishning zaruriyati va uning ahamiyati	57
9.	Kurbanbayev Jurabek Eruvbayevich, Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	Auditorlik tekshiruvlarida tashqi tasdiqlardan foydalanish va ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirish	66
10.	Абдурахманов Ўрол Наврўз ўғли	Акциядорлик жамиятлари аудитида таҳлилий амалларни қўллашни такомиллаштириш	71
11.	Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o'g'li	Yoshlar biznes-loyihalarini moliyalashtirishda kredit va investitsiya resurslarining o'rni	80
12.	Shodiyev Yashnarbek Baxriddin o'g'li	Davlat moliyaviy nazoratini modellar va metodologik yondashuvlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish	92
13.	Muydinov Baxodirjon Numanovich	Korxonalarda ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish	101
14.	Mirzanov Zakir Maratovich	Paxta yetishtirish va qayta ishlash klasterlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirish	111
15.	Тожибоева Дилором	XXI ахборотлар асри – қарор қабул қилиш жараёнининг мураккаблашуви асри	116
16.	Нурхонов Комилжон Товкараевич	Яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва устуворликлари	124
17.	Saydullayev Nodirbek Narzullayevich	Inflyatsion targetirlash sharoitida markaziy bank valyuta intervensiyalari strategiyasini takomillashtirish mexanizmlari	132
18.	Хусаинов Равшан Рахимович	Сравнительный анализ налоговых систем зарубежных стран и трансформация их для Узбекистана	143
19.	Maxkamova Nazokat Umarali qizi	O'zbekiston iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'rni	150
20.	Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo'l transporti korxonalarining ekologik-iqtisodiy samaradorligini oshirishning innovatsion mexanizmlari	156
21.	Kuliboyev Azamat Shonazarovich	Davlat tibbiyot tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya, amaliyot va uslubiyot	165





22.	Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li	Raqamli texnologiyalar asosida budget tashkilotlarida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish: Farg'ona viloyati misolida	179
23.	Xasanova Shaxzoda Sarvarq qizi	Avtomatlashtirish davrida ayollarning mehnat bozoridagi transformatsiyasi: global tendensiyalar va O'zbekistonning 2030-yilgacha imkoniyatlari	188
24.	Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	Бюджет ташкилотларида узоқ муддатли активлар билан боғлиқ молиялаштириш манбалари	194
25.	Худойкулова Дилора Дилмуродовна	Обеспечение надежности аудиторских доказательств при аудите долгосрочных активов	200
26.	To'xtayev Umidjon Shuhrat o'g'li	Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish yo'llari	209
27.	Djumaniyazov Shavkat Raximovich	Yangi O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	216
28.	Siroj Zarina Rustambekovna	O'zbekistonda demografik jarayonlarni statistik prognozlash va monitoring tizimini takomillashtirish	223





XUSUSIY TIBBIY XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

To‘xtayev Umidjon Shuhrat o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti mustaqil

Izlanuvchisi

E-mail: umidjon.tuxtayev008@gmail.com

Orcid id: [0009-0009-2372-7644](https://orcid.org/0009-0009-2372-7644)

Annotatsiya: Maqolada xususiy tibbiy xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi iqtisodiy, tashkiliy va sifat omillari tizimli tadqiq etilgan. Xususiy tibbiyot tashkilotlarining raqobat ustunligini ta’minlashda tibbiy xizmat sifati, bemor uchun yaratiladigan qiymat, narx va sifat mutanosibligi, innovatsion texnologiyalar, raqamlashtirish, kadrlar salohiyati, akkreditatsiya va natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvning ahamiyati asoslangan. O‘zbekistonda xususiy tibbiyot sektorini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar tahlil qilinib, xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida sifat, iqtisodiy samaradorlik va bemor qoniqishini yagona raqobat mexanizmiga birlashtirishga asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xususiy tibbiyot, tibbiy xizmatlar, raqobatbardoshlik, raqobat ustunligi, xizmat sifati, bemor qoniqishi, qiymatga asoslangan tibbiy xizmat, akkreditatsiya, innovatsiya, raqamli tibbiyot, investitsiya, tibbiy sug‘urta, iqtisodiy mexanizm.

СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЧАСТНЫХ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ

Тохтаев Умиджон Шухрат ўғли

Бухарский государственный университет,

независимый исследователь

Электронная почта: umidjon.tuxtayev008@gmail.com

Orcid id: [0009-0009-2372-7644](https://orcid.org/0009-0009-2372-7644)

Аннотация: В статье системно исследованы экономические, организационные и качественные факторы, формирующие конкурентоспособность на рынке частных медицинских услуг. Обоснована роль качества медицинских услуг, создаваемой для пациента ценности, соотношения цены и качества, инновационных технологий, цифровизации, кадрового потенциала, аккредитации и управления, ориентированного на результат, в обеспечении конкурентных преимуществ частных медицинских организаций. Проанализированы институциональные реформы, реализуемые в Узбекистане в целях развития частного медицинского сектора, и систематизированы приоритетные направления повышения конкурентоспособности частных медицинских услуг. По результатам исследования разработаны предложения, основанные на интеграции качества, экономической эффективности и удовлетворенности пациентов в единый механизм обеспечения конкурентоспособности.

Ключевые слова: частная медицина, медицинские услуги, конкурентоспособность, конкурентное преимущество, качество услуг, удовлетворенность пациентов, медицинские услуги, ориентированные на ценность, аккредитация, инновации, цифровая медицина, инвестиции, медицинское страхование, экономический механизм.

WAYS TO ENHANCE THE COMPETITIVENESS OF PRIVATE MEDICAL SERVICES

To‘xtayev Umidjon Shuhrat o‘g‘li

Independent Researcher,





Bukhara State University

E-mail: umidjon.tuxtayev008@gmail.com

Orcid id: [0009-0009-2372-7644](https://orcid.org/0009-0009-2372-7644)

Abstract: *The article systematically examines the economic, organizational, and quality factors that shape competitiveness in the private healthcare services market. It substantiates the importance of healthcare service quality, patient value creation, price–quality balance, innovative technologies, digitalization, human resource capacity, accreditation, and outcome-oriented management in ensuring the competitive advantages of private healthcare organizations. The institutional reforms being implemented in Uzbekistan to develop the private healthcare sector are analyzed, and the priority areas for enhancing the competitiveness of private healthcare services are systematized. Based on the research findings, proposals are developed to integrate quality, economic efficiency, and patient satisfaction into a unified mechanism for ensuring competitiveness.*

Keywords: *private healthcare, healthcare services, competitiveness, competitive advantage, service quality, patient satisfaction, value-based healthcare services, accreditation, innovation, digital healthcare, investment, health insurance, economic mechanism.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasining tarkibiy jihatdan murakkablashib borishi tibbiy xizmatlar bozorida ham raqobat munosabatlarining mazmuni yangi bosqichga o'tishga olib kelmoqda. Agar an'anaviy sharoitda tibbiyot tashkilotining bozordagi mavqei asosan moddiy-texnik bazasi, shifokorlar malakasi va xizmat narxi bilan belgilangan bo'lsa, zamonaviy sharoitda raqobat ustunligining shakllanishi klinik natija, xizmat ko'rsatish tezligi, bemor xavfsizligi, raqamli qulaylik, axborot shaffofligi, personallashtirilgan yondashuv va bemorning umumiy qoniqish darajasi kabi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarni qamrab olmoqda.

Xususiyy tibbiy xizmatlarning o'ziga xosligi shundaki, mazkur bozorda raqobatning natijasi faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan cheklanmaydi. Tibbiyot tashkilotining bozordagi ustunligi inson salomatligi bilan bog'liq ijtimoiy natijalar, davolash samaradorligi va xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan bevosita uyg'unlashadi. Shu sababli xususiyy tibbiyotda raqobatbardoshlikni faqat xizmat narxini pasaytirish yoki xizmatlar turini ko'paytirish orqali ta'minlash uzoq muddatli iqtisodiy natija bermaydi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti xususiyy sektor aksariyat mamlakatlar sog'liqni saqlash tizimlarida muhim o'rin egallashini, uning ishtiroki bevosita tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bir qatorda dori vositalari, kadrlar tayyorlash, axborot texnologiyalari, infratuzilma va tibbiyot tashkilotlarini boshqarish xizmatlarini ham qamrab olishini ta'kidlaydi [1]. Bu holat xususiyy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi

O'zbekistonda so'nggi yillarda sog'liqni saqlash sohasida xususiyy sektor ishtirokini kengaytirish, davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish hamda xususiyy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan institutsional islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. 2017-yilda qabul qilingan sog'liqni saqlash sohasida xususiyy sektorni yanada rivojlantirishga oid choralar xususiyy klinikalar tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan tibbiy xizmatlar doirasini sezilarli kengaytirdi [2].

Mazkur jarayon keyingi bosqichlarda xususiyy tibbiyotning milliy sog'liqni saqlash tizimidagi iqtisodiy mavqeini yanada mustahkamlash bilan davom etdi. 2025-yil yakunida mamlakatda tibbiy xizmatlarning 30 foizi xususiyy sektor tomonidan ko'rsatilayotgani qayd etilgan [3]. Bu, bir tomondan, xususiyy tibbiyotning milliy xizmatlar bozorida mustaqil iqtisodiy segment sifatida shakllanganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, xususiyy klinikalar o'rtasida narxdan tashqari raqobat omillarining ahamiyati ortib borayotganligini anglatadi.





2026-yilda qabul qilingan xususiy tibbiyot sektorini qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralari ushbu jarayonni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, investitsiya va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish, hududlarda xizmat sifati va qulayligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi [4].

Ayni paytda xususiy sektor miqdoriy jihatdan kengayishi avtomatik ravishda uning raqobatbardoshligi oshganligini anglatmaydi. Yangi bozor sharoiti xususiy tibbiyot tashkilotlaridan xizmat natijadorligi, klinik sifat, texnologik yangilanish, malakali kadrlarni saqlab qolish, bemor ishonchini mustahkamlash va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish bo‘yicha yangi raqobat strategiyalarini talab etmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Tibbiy xizmatlar bozorida raqobat munosabatlarining nazariy asoslarini tadqiq etishda M. Porter va E. Teysberg tomonidan ishlab chiqilgan qiymatga asoslangan raqobat konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Olimlarning fikricha, sog‘liqni saqlash tizimida samarali raqobat xarajatlarni bir subyektdan ikkinchisiga o‘tkazish yoki faqat bozor ulushi uchun kurashish emas, balki bemor uchun yuqori qiymat yaratishga yo‘naltirilishi lozim [5].

M. Porter va E. Teysbergning keyingi tadqiqotlarida tibbiyot sohasidagi raqobat davolashning butun sikli davomida bemor uchun qiymat yaratishga asoslanishi lozimligi yanada keng asoslangan [6]. Bunday yondashuv xususiy klinika raqobatbardoshligini uning xizmatlari soni yoki narxi emas, balki klinik natija, bemorga sarflangan xarajat va xizmatdan olingan foydaning o‘zaro nisbati orqali baholash imkonini beradi.

P.A. Rivers va M.D. Glover tibbiy xizmatlar sohasida raqobat, xizmat sifati, xarajatlari va bemor qoniqishi o‘rtasidagi munosabatlarni tadqiq etib, bemor qoniqishini raqobat muhiti natijadorligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich sifatida baholaydilar [7].

Empirik tadqiqotlarda tibbiy xizmatlar bozorida raqobat kuchayishi bemorlar tomonidan baholanadigan xizmat sifatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlangan [8]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti esa xususiy sektorni samarali boshqarilishi lozim bo‘lgan aralash sog‘liqni saqlash tizimining tarkibiy qismi sifatida baholaydi [9].

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini klinik natija – iqtisodiy samaradorlik – xizmat sifati – bemor qoniqishi – innovatsion faollik o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash qobiliyati sifatida talqin etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli va qiyosiy tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiy umumlashtirish, monografik tadqiqot, guruhlash hamda institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini shakllantiruvchi omillar ularning iqtisodiy mazmuni va natijaga ta‘siri bo‘yicha guruhlandi. Shuningdek, xorijiy ilmiy yondashuvlar va O‘zbekistonda xususiy tibbiyotni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar qiyosiy o‘rganildi. Tadqiqotda xususiy tibbiy xizmatlar bozorida raqobat muhitining shakllanishiga ta‘sir etuvchi iqtisodiy, institutsional, moliyaviy va texnologik omillar o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Xizmatlar sifati, narx siyosati, zamonaviy tibbiy texnologiyalardan foydalanish, malakali kadrlar bilan ta‘minlanganlik, investitsion faollik hamda davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyoz va preferensiyalarning raqobatbardoshlikka ta‘siri tizimli yondashuv asosida baholandi. Nazariy umumlashtirish va mantiqiy tahlil asosida xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishda davlat qo‘llab-quvvatlashi, investitsiyalarni rag‘batlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xizmatlar sifatini yaxshilashning ustuvor yo‘nalishlari asoslandi.

Tahlil va natijalar

Xususiy tibbiy xizmatlar bozorida raqobatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, iste‘molchi





xizmatning haqiqiy sifatini uni xarid qilishdan oldin to‘liq baholash imkoniyatiga ega emas. Bemor ko‘p holatlarda tibbiy xizmatni tanlash jarayonida klinikaning obro‘si, shifokor malakasi, boshqa bemorlarning tajribasi, xizmat narxi, joylashuv qulayligi va axborot ochiqligiga tayanadi. Shu sababli mazkur bozorda ishonch iqtisodiy resurs xususiyatini kasb etadi.

Xususiy klinika uchun raqobat ustunligi faqat zamonaviy tibbiy jihozlarni xarid qilish hisobiga shakllanmaydi. Texnologik jihozlanish yuqori bo‘lgan sharoitda ham diagnostikadagi xatolar, bemorni qabul qilishda uzoq kutish, narxlarning noaniqligi, tibbiy ma‘lumotlarning yo‘qolishi yoki personalning kommunikatsiya madaniyati pastligi xizmatning yakuniy qiymatini pasaytiradi. Demak, raqobatbardoshlik klinikaning alohida resurslari yig‘indisi emas, balki ularni bemor uchun natija yaratishga yo‘naltira oladigan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm samaradorligini ifodalaydi.

Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning birinchi ustuvor yo‘nalishi xizmatlar sifatini natijaga asoslangan mezonlar bo‘yicha boshqarish hisoblanadi. Bunda xizmat sifatini faqat sanitariya talablari yoki bemor shikoyatlari soni orqali emas, balki qayta murojaatlar, asoratlar, davolash natijasi, bemor xavfsizligi, xizmatdan qoniqish va davolash sikli davomiyligi kabi ko‘rsatkichlar orqali baholash zarur.

Ikkinchi yo‘nalish – narx va sifat o‘rtasida iqtisodiy mutanosiblikni ta‘minlash. Tibbiy xizmatlarda eng past narx har doim ham yuqori raqobatbardoshlikni anglatmaydi. Shuning uchun xususiy klinikalar narx raqobatidan ko‘ra bemor oladigan natijaga nisbatan optimal xarajatni ta‘minlashga harakat qilishi lozim.

Uchinchi yo‘nalish – xususiy klinikalar faoliyatini raqamlashtirish. Onlayn qabul, elektron tibbiy karta, laboratoriya natijalarining mobil yetkazilishi, masofaviy konsultatsiya, elektron to‘lov, avtomatlashtirilgan navbat va bemor bilan davolashdan keyingi aloqa tizimlari tranzaksion xarajatlarni kamaytirib, xizmatdan foydalanish qulayligini oshiradi.

To‘rtinchi yo‘nalish – tibbiy kadrlar salohiyatini raqobat ustunligiga aylantirish. Xususiy klinikada kadrlarni boshqarish siyosati faqat ish haqi bilan cheklanmasdan, uzluksiz malaka oshirish, ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish, klinik protokollarga rioya qilish va natijaga bog‘langan moddiy rag‘batlantirish mexanizmlarini qamrab olishi lozim.

Beshinchi yo‘nalish – ixtisoslashuv asosida bozor pozitsiyasini mustahkamlash. Muayyan kasallik yoki tibbiy yo‘nalish bo‘yicha yuqori kompetensiya shakllantirgan klinika bilim, tajriba va texnologiyalarni konsentratsiyalash hisobiga yuqori natijadorlikka erishishi mumkin [5; 6].

1-jadval

Xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari*

№	Ustuvor yo‘nalish	Amalga oshirish mexanizmi	Kutiladigan raqobat natijasi
1	Tibbiy xizmat sifatini oshirish	Klinik natijalar va bemor xavfsizligini KPI asosida baholash	Bemor ishonchining oshishi
2	Qiymatga asoslangan narx siyosati	Narxni davolash natijasi va resurs sarfi bilan muvofiqlashtirish	Narx–sifat mutanosibligi
3	Raqamli transformatsiya	Elektron karta, onlayn qabul, telemeditsina, CRM	Xizmat tezligi va qulayligining oshishi
4	Kadrlar salohiyati	Uzluksiz ta‘lim va natijaga asoslangan motivatsiya	Klinik kompetensiyaning oshishi
5	Ixtisoslashuv	Muayyan xizmat yo‘nalishlarida kompetensiya markazlari	Barqaror bozor pozitsiyasi
6	Akkreditatsiya	Milliy va xalqaro sifat standartlarini joriy	Reputatsion





		etish	ustunlik
7	Innovatsion investitsiyalar	Yuqori texnologik uskunalar va zamonaviy davolash usullari	Texnologik ustunlik
8	Tibbiy sug'urta	Davlat va xususiy sug'urta mexanizmlariga integratsiya	Talab bazasining kengayishi
9	Bemorga yo'naltirilgan boshqaruv	Qoniqish va tajribani muntazam baholash	Mijoz sodiqligining oshishi
10	Axborot shaffofligi	Narx, xizmat tarkibi va natijalarni ochiq taqdim etish	Axborot asimmetriyasining qisqarishi

*Manba: muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Oltinchi yo'nalish – milliy va xalqaro akkreditatsiyadan raqobat signali sifatida foydalanish. Mustaqil akkreditatsiya klinika sifati haqida tashqi tasdiqlangan axborot vazifasini bajaradi va uning bozor qiymati hamda bemor ishonchini oshiradigan iqtisodiy instrumentga aylanadi.

Yettinchi yo'nalish – investitsiya va innovatsion faollikni kuchaytirish. Xususiy tibbiy xizmatlar bozori kapital sig'imi yuqori bo'lgan xizmatlar sohasi hisoblanadi. Diagnostika uskunalar, laboratoriya tizimlari va raqamli infratuzilma katta boshlang'ich investitsiyalarni talab etadi.

Sakkizinchi yo'nalish – davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlariga xususiy sektorni integratsiya qilish. Bunday sharoitda bemor uchun kurash narxni oshirish orqali emas, balki belgilangan moliyaviy resurs doirasida yuqori sifat va natijaga erishish orqali amalga oshishi mumkin.

Jadvaldan ko'rinadiki, xususiy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish alohida bir instrumentdan foydalanishga emas, balki o'zaro bog'liq iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni bir vaqtning o'zida takomillashtirishga asoslanishi lozim. Bunda sifat markaziy element sifatida xizmat qilib, raqamlashtirish, investitsiya, kadrlar, akkreditatsiya va sug'urta mexanizmlari uni ta'minlovchi vositalar sifatida ishtirok etadi.

2-jadval

Xususiy tibbiyot tashkiloti raqobatbardoshligini baholash ko'rsatkichlari*

Yo'nalish	Asosiy ko'rsatkichlar	Iqtisodiy mazmuni
Klinik samaradorlik	Davolash natijasi, asoratlar, qayta murojaat	Xizmatning yakuniy natijadorligi
Sifat	Standartlarga muvofiqlik, akkreditatsiya	Barqaror sifat kafolati
Iqtisodiy samaradorlik	Bir bemorga xarajat, rentabellik	Resurslardan foydalanish samaradorligi
Bemor qoniqishi	Qoniqish indeksi, takroriy murojaat	Iste'molchi sodiqligi
Innovatsionlik	Yangi texnologiya va xizmatlar ulushi	Texnologik yangilanish qobiliyati
Raqamlashtirish	Elektron xizmatlar ulushi	Tranzaksion xarajatlarni qisqartirish
Kadrlar	Malaka darajasi, kadrlar qo'nimsizligi	Inson kapitali barqarorligi
Bozor pozitsiyasi	Bemorlar soni, xizmatlar segmenti	Bozordagi raqobat mavqei

*Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Taklif etilayotgan yondashuv xususiy klinikalarni faqat iqtisodiy natijalari bo'yicha emas, balki bemor uchun yaratayotgan tibbiy-iqtisodiy qiymati bo'yicha ham o'zaro taqqoslash imkonini





beradi. Bunda raqobatbardosh klinika eng qimmat yoki eng arzon xizmat ko'rsatuvchi subyekt emas, balki mavjud resurslar hisobiga bemor uchun barqaror yuqori natija yarata oladigan tashkilot sifatida namoyon bo'ladi. Xususiyy tibbiyotda bunday yondashuvning joriy etilishi bozordagi raqobat mazmunini ham o'zgartiradi. Klinikalar bemorlarni reklama yoki narx chegirmalari orqali jalb qilishdan ko'ra, davolash natijasi, xavfsizlik, servis va innovatsiyalar bo'yicha ustunlik yaratishga intiladi. Natijada raqobat tibbiy xizmatlar sifatini uzluksiz yaxshilash mexanizmiga aylanadi.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tadqiqot natijalari xususiyy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligi ko'p omilli iqtisodiy kategoriya ekanligini ko'rsatdi. Uning shakllanishi klinik xizmat sifati, bemor uchun yaratiladigan qiymat, xizmat narxi, texnologik imkoniyatlar, inson kapitali, axborot shaffofligi va boshqaruv samaradorligining o'zaro ta'siriga bog'liq.

Birinchidan, xususiyy tibbiyotda raqobatni narx ustunligiga emas, natijaga asoslangan sifat raqobatiga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Buning uchun klinik natija, asoratlari, bemor qoniqishi, qayta murojaat va bir bemorga to'g'ri keladigan xarajat kabi ko'rsatkichlarni yagona baholash tizimiga birlashtirish lozim.

Ikkinchidan, milliy va xalqaro akkreditatsiya tizimlaridan xususiyy tibbiyot tashkilotlari uchun bozorda sifatni tasdiqlovchi iqtisodiy signal sifatida foydalanish zarur.

Uchinchidan, xususiyy klinikalarning raqamli sog'liqni saqlash platformalariga integratsiyasini kuchaytirish orqali bemor harakatining uzluksiz elektron trayektoriyasini shakllantirish zarur.

To'rtinchidan, xususiyy tibbiyot tashkilotlarining investitsion faolligini rag'batlantirish mexanizmlarini ular tomonidan erishilayotgan sifat ko'rsatkichlari bilan bog'lash maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, xususiyy tibbiy xizmatlar bozorida bemor uchun axborot ochiqligini oshirish talab etiladi. Klinikalar tomonidan xizmat narxi, uning tarkibi, shifokor malakasi, akkreditatsiya holati va asosiy sifat ko'rsatkichlarini ochiq taqdim etish bemorning ratsional tanlov imkoniyatini kengaytiradi.

Umuman, xususiyy tibbiy xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishning strategik yo'nalishi "ko'proq xizmat sotish" modelidan "bemor uchun ko'proq qiymat yaratish" modeliga o'tish bilan ifodalanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. World Health Organization. The private sector, universal health coverage and primary health care. – Geneva: WHO, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-apreldagi "Sog'liqni saqlash sohasida xususiyy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2863-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar natijadorligi tahlil qilinib, kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilab olindi. – Toshkent, 2025.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tibbiyot sohasida xususiyy sektorni qo'shimcha qo'llab-quvvatlashga oid hujjatlari. – Toshkent, 2026.
5. Porter M.E., Teisberg E.O. Redefining Competition in Health Care // Harvard Business Review. – 2004. – Vol. 82, No. 6. – P. 64–76, 136.
6. Porter M.E., Teisberg E.O. Redefining Health Care: Creating Value-Based Competition on Results. – Boston: Harvard Business School Press, 2006. – 506 p.
7. Rivers P.A., Glover S.H. Health care competition, strategic mission, and patient satisfaction: research model and propositions // Journal of Health Organization and Management. – 2008. – Vol. 22, No. 6.
8. Gravelle H., Liu D., Propper C., Santos R. Spatial competition and quality: Evidence from the English family doctor market // Journal of Health Economics. – 2019/2020.





9. World Health Organization. Engaging the private health service delivery sector through governance in mixed health systems. – Geneva: WHO, 2020. – 52 p.
10. World Health Organization. The private sector in health service delivery: an operational definition. – Geneva: WHO, 2023. – 16 p.

